XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI
NAVBAHOR TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 2 - avgust VI-61-84-5-73-K/23 Navbahor tuman hokimligi

Tuman mahalliy budjetining 2023-yilda shakllangan qo`shimcha manbalari hisobidan mablag‘lar ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan tuman mahalliy budjetining 2023-yilda shakllangan qo`shimcha manbalari hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish maqsadida hamda tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 14-iyuldagi 01-12-230/20-01-38/206-sonli xatiga asosan, xalq deputatlari navbahor tuman Kengashi

QAROR QILADI

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi v.b (S.Axtamov) tuman mahalliy budjetining 2023-yilda shakllangan qo`shimcha manbalari hisobidan ilovada ko‘rsatilgan budjet tashkilotlariga amaldagi budjet tasnifiga rioya qilgan holda mablag‘lar ajratilishi ta’minlasin

2. Mablag‘ ajratilgan budjet tashkilotlari rahbarlariga ushbu mablag‘larni maqsadli sarflanishini nazorat qilish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi, tuman G‘aznachilik xizmati bo‘limi tuman mahalliy budjetining 2023-yilda shakllangan qo`shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qilsin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Jumaboyev hamda xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati mudiri Z.Qudratov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **A.O'roqov**

Xalq deputatlari Navbahor tuman
Kengashining
2023-yil 2-avgustdagi
VI-61-84-5-73-K/23-son qaroriga
1-ilova